

UDK:632.7+632.715.1

KARANTIN OBYEKTI HISOBLANGAN KOMSTOK QURTI ZARARKUNANDASI HAQIDA VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARI

Xasanov Jamshid Davletbaevich, Zinatdinov Nuratdin Mnajadinovich

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston

Respublikasi

Annotation. *The article describes the control of the comstock worm pest and its development and spread to farmers and farms that grow agricultural products*

Keywords: *Comstock worm pest, morphology, description, habitat, damage and control measures.*

Teng qanotlilar turkumining, koktsidlar –*Coccinea* kenja turkumiga, so'ruvchi hasharotlarning ung'uborli qurtlar oilasiga mansub bo'lib, xavfli ichki karantin hasharotidir. Uni deyarli barcha mevali va manzarali daraxt, daraxtsimon o'simliklar hamda ayrim o'tsimon o'simliklarda (hatto tut qatorlariga yaqin joylarda, g'o'zada ham) uchratish mumkin. Mevali daraxtlardan anor, olma, nok, shaftoli, shuningdek tutlarni qattiq zararlaydi. Komstok qurti har qanday daraxtda uchrashi, panada hayot kechirishi, biologik xususiyatlari juda ko'p urug'li bo'lib, tabiatda tez tarqalishi hisobiga unga qarshi kurashish juda qiyindir. Komstok qurti O'rta Osiyoning barcha Respublikalariga Qozog'istonga, shuningdek Guruziya, Armaniston va Ozarbayjonga tarqalgan.

Ta'rifi; Erkak va urg'ochi zotlari tashqi tuzilishi bo'yicha keskin farqlanadi. Urg'ochisi yassi shaklli, qanotsiz, kam harakatli, erkagi 1 juft qanotli, serharakat, rangi qizg'ish-jigarrang tusda, uzunligi 1-1,5 mm, mo'ylovlari 10 bo'g'inli. Tuxumining uzunligi 0,3 mm, bir tomonidan toraygan oval shaklda. Rangi sariq-zarg'aldoq bo'ladi, yupqa oq gard bilan qoplangan. Lichinkalari birinchi yoshda 0,45 mm keladi, oval shaklda, u tezda oq g'uborga o'raladi, ikkita dumchaga ega, yonida o'simtalari yo'q.

Urg'ochisining uzunligi 3-4 mm dan 5-6 mm gacha. Tanasi oq mumsimon kiprik bilan qoplanganligidan oq bo'lib ko'zga tashlanadi. Tanasining chetlarida 17 juft o'simtalari mavjud.

Hayot kechirishi; Komstok qurti turli joylarda: daraxt, uzum po'stloqlarining osti, ildiz atroflari, xazon oralarida tuxumlik shaklida qishlab chiqadi. Mart-aprel oylarida

tuxumlardan lichinkalar ochib chiqib daraxt tanasi bo'ylab harakat qiladi va qulay joy tanlagach, uni sanchib so'rishga kirishadi. Komstok qurti yetuk zotga aylanadi va 10-30 kunlardan keyin tuxum qo'yishga kirishadi.

Zarari; Komstok qurti madaniy va yovvoyi o'simliklarning 300 dan ko'p turini zararlanishi mumkin. U o'simliklarning barcha qismini (mevasini, hatto ildizini ham) shikastlaydi. Qurtlari odatda bargning orqa tomondagi tomirlari bo'yilab oziqlanadi. Qurtining zararidan o'simlik barglari sarg'ayib quriydi, novdalari qing'ir-qiyshiq bo'lib qoladi, daraxt tanasi, ildizlari va shohalarida shish va yoriqlar hosil bo'ladi. Bunday daraxt zaiflashib, ikkilamchi zararkunandalar bilan tezroq zararlanadi. Mevalarning sifati yomonlashib, daraxt hosildorligi pasayib ketadi.

Kurash choralari; Komstok qurti ichki karantin ob'ekti bo'lib hisoblanadi, komstok qurti zararkunandasiga biologik kurash sifatida psevdafikusni laboratoriya va dala sharoitlarida ko'paytirish mumkin. Kimyoviy kurash sifatida komstok qurti tarqalgan daraxt va o'simliklarga quyidagi insektitsidlar bilan ishlov beriladi benzofosfat-0,3 %, karate-0,05%, talstar-0,05%, mospilan-0,02%.

ADABIYOTLAR

1. Ш.Т.Хўжаев, О.А.Сулайманов. Умумий ва қишлоқ хўжалик энтомологияси ҳамда уйғунлашган ҳимоя қилиш тизимининг асослари 214-бет.
2. <https://agro-olam.uz/komstok-qurti/>